

“ DUNYONING ISHLARI” ASARIDAGI DIALEKT LEKSEMALAR BAZASINI MILLIY KORPUSGA TAYYORLASH BOSQICHI

Yo’ldosheva E’zoza

TerDU O’zbek filologiyasi fakulteti , Amaliy filologiya yo’nalishi

122-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7809698>

Annotatsiya: O’.Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asaridagi hikoyalaran shevaga oid so’zlarni olish va ularni milliy korpus tarkibiga subkorpus shaklida joylashtirish; dialekt so’zlar qanvha ko’p bo’lsa ularning barchasini korpusga kiritish orqali saqlab qolish va adabiy asarlarda ko’proq qo’llash kerak

Kalit so’zlari: dialekt, baza, korpus, hikoyalar, tarix va kelajak, milliy korpus.

Dialekt so’zlari hozirgi davrda juda ko’p qo’llanyapti. U nima? Nega aynan dialekt deb yuritiladi? Deya savollar qo’yishimiz tabiiy! Demak biz boshladik! Dialekt bu sodda so’zlarda tushuntiradigan bo’lsak, shevaga oid so’zlar hisoblanadi. Ushbu atamaga O’zbek tilining izohli lug’atida shunday ta’rif berilgan: dialekt yunoncha so’z bo’lib, u lahja, sheva degan ma’noni anglatadi, umumxalq tilining adabiy tildan ma’lumli soniy xususiyatlari bilan farq qiluvchi mahalliy va ijtimoiy ko’irishdir¹. Har bir hududning o’sha yerliklar tushunadigan va ular qo’llaydigan maxsus so’zlari bor. Aynan shu so’zlar shevaga oid birliklar deyiladi va buning fandagi termini – dialekt. Dialekt so’zlar bilan shug’ullanuvchi fan esa dialektologiya hisoblanadi.

Yana bir savol: korpus nima? Keling avval korpusni oddiy va sodda usulda tushuntirsak: korpus bu internet saytlari hisoblanib, bir umumiy yaxlit holatlarga termin yoki so’zlarning jamlanmasi hisoblanadi. Barcha o’zbek tiliga xos so’zlarni bir saytga yig’ish natijasida korpus hosil bo’ladi. Birinchi korpus “Braun korpusi” hisoblanib, u ingliz tili korpusidir. Hozirgi kunga kelib dunyo bo’yicha mingdan ziyod korpuslar mavjud. Shuni ta’diklash joizki, korpusning ham bir necha turlari bor: milliy korpus, ta’limiy korpus...

Aynan ushbu tezisda nazariy jihatdan yaratdigan kichik bir korpusimiz milliy korpus hisoblanadi. Bu dialekt korpus umumiy korpusga bir subkorpus sifatida joylanadi. Subkorpus – sub lotincha so’z bo’lib, ostida, pastida deb yuritiladi². Korpus esa lotincha so’z bo’lib, tana, bir butun narsa degan ma’noni bildiradi³

O’tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” hikoyalar to’plamidan dialekt shevalar bazasini shakllantiramiz. Asosiy maqsad: ushbu asardan shevaga oid birliklarni olamiz va ularni subkorpus qilib joylashtiramiz.

T/R	Shevaga oid so’z	izohi
-----	------------------	-------

¹ O’zbek tilining izohli lug’ati 2021 yil elektron varianti

² O’zbekiston milliy ensiklopediyasi T.:2000-2005

³ O’zbek tilining izohli lug’ati 2021 lektron varianti

1	supa	Hovli yoki bog' yerda o'tirish uchun tuproqdan qurilgan uchburchak joy
2	Lop etib	To'satdan, tezlikda
T/R	Shevaga oid so'z	Izohi
3	Cho'pchak	Ertak, masal, hikoyat
4	Poshsha buvi	Kelsa ayollar, kampirlar
5	yakkash	Nuqul, hamisha ⁴
6	...	

Bu kabi jadvalni to'la qoni davom ettirish mumkin. Bu asarda ko'proq Toshkent viloyati shevasi keltirilgan. Chunki asar voqelari yurtimiz poytaxti hududida bo'lib o'tgan. Aynash shu javdalni mukammal holatda yaratish bilan birga uni korpusga joylash ham jud kerak. Korpusga joylash davomida nafaqat so'z va uning ma'nosini, qolaversa o'sha gapni to'liq yozib olish, har jabhada tahlil qilish kerak. Shundagina uni murakkab holatga keltirish va foydalanish uchun oson imkon beradi.

References:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati 2021 yil elektron varianti
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi T.:2000-2005
3. Hoshimov O' Dunyoning ishlari T.:2015 "Meriyus" nashriyoti

⁴ Hoshimov O' Dunyoning ishlari T.:2015 "Meriyus" nashriyoti